

**MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOVNING YANGI USUL
MAKTABLARINI TASHKIL ETISHDAGI MA'RIFATPARVARLIK
XIZMATLARI**

Soatova Rayxona Sadriddin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi
rayhonasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, siyosiy arbob, mustamlakachilikka qarshi kurashgan tolmas kurashchi, jadid maktablari uchun ko'plab darsliklar muallifi bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning hayot yo'li, ma'rifatparvarlik xizmatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, jadidchilik harakati, matbuot, maktablar, mustamlakachilik, ta'lif-tarbiya, milliy tarbiya, teatr.

Annotation: This article talks about the life path and educational services of Munavvargari Abdurashidkhanov, one of the leaders of the Jadid movement, a political figure, an indefatigable fighter who fought against colonialism, and the author of many textbooks for Jadid schools.

Key words: enlightenment, revolutionary movement, press, schools, colonialism, education, national education, theater.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизненном пути и образовательной деятельности Мунавваргари Абдурашидханова, одного из лидеров джадидского движения, политического деятеля, неутомимого борца, боровшегося с колониализмом, автора многих учебников для джадидских школ.

Ключевые слова: просвещение, революционное движение, печать, школа, колониализм, образование, народное образование, театр.

Munavvarqori Abdurashidxonov – XX asr o'zbek milliy jadidchilik harakatining yo'lboshchisi, milliy matbuot va yangi usuldagagi milliy mакtab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri bo'lgan yorqin siymo. Munavvarqori Abdurashidxonov 1978-yil Toshkentning Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyorli oilada tug'ilgan. Otasidan erta yetim qolgani uchun dastlabki ta'lif-tarbiyani onasidan oladi. Buxorodagi Mirarab madrasasidagi tahsilini oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib, muallimlik va imomlik bilan shug'ullanadi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1901-yilda usuli jadid mакtabini ochadi va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturlari, darsliklarini tuzgan. U milliy teatr asoschilaridan biri hisoblanadi va 1914-yil "Turon" nomli truppani tashkil qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi avval”, “Adib us-soniy”, “Tarixi qavm turk”, “Tarixi anbiyo”, “Yer yuzi” kabi ko‘plab darslik va kitoblar muallifidir.

Munavvarqori Abdurashidxonov ijtimoiy-pedagogik faoliyatdan tashqari badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. U yozgan ixcham hikoyalar, she’rlari o’sha davrdagi matbuot va darsliklariga kiritilgan bo‘lib, uning har bir misralarida inson, jamiyat, hurriyat, ziyolilik masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z kasbiy faoliyati davomida pedagoglik, muharrirlik, matbuotchilik bilan cheklanib qolmay, siyosiy sohada ham faoliyat olib borgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov butun millatni jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, aholini ziyoli qilish kabi maqsadlar uning eng asosiy maqsadlaridan biri edi. Buning uchun esa amaldagi eski ta’lim tizimidan voz kechgan holda, yangi usuldagagi ta’lim tizimini barpo etish lozim edi. Bundan tashqari teatr, badiiy asarlar, gazeta-jurnallar mutolaasini aholi ongiga singdirish, kundalik hayot tarziga olib kirish ham muhim vazifalardan biri edi. Aholida milliy g‘ururni uyg‘otish, istiqlol uchun kurashga otlanish mumkinligiga ko‘pgina jadidchilar qatori Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu uchun yonib-kuyib harakat qiladi.

Munavvar qori bu yangi diniy va dunyoviylikka asoslangan harakatning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalarini juda erta anglab, o‘z hovlisida ochgan to‘rt yillik ”savtiya”, ya’ni tovush usuli maktabi eski an’anaviy maktablarga mutloq raqobatda bo‘lgan yangi jadid maktabini ochadi. Shu o‘rinda Munavvarqori jadidchilikni hozirgi tushunchadagi islohotchilik, ishbilarmonlik hamda tadbirkorlikdan boshladi desak, xato bo‘lmaydi. Munavvar qori maktabida diniy va dunyoviy ilmlar o‘zaro uyg‘unlikda yonma-yon o‘qitiladi. O‘quvchilar tezda savod chiqarib ravon o‘qish hamda yozish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Munavvar qori maktabidan andoza olgan jadid maktablari nafaqat Turkiston, hatto undan tashqarida ham birin-ketin ochilib, tezlik bilan yoyila boshladi.¹ Bu mashaqqatli ishda turkistonlik, toshkentlik, qrimlik va tatar muallimlar uni qo’llab-quvvatlashadi. Yangi maktab o‘quvchilari juda qisqa vaqt, ya’ni olti oydayoq xat-savod chiqarar edilar, eski an’anaviy maktablarda esa alifboni bu jarayon besh yilgacha cho‘zilgan. Darslar ona tilida tashkil etilgan, ustoz va o‘quvchilar munosabati demokratiya tamoyillariga asoslangan edi. Maktabning yana bir yutug‘i shundaki, unda diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unlikda o‘rgatilgan. Vaholangki, o’sha davrda amaldagi ta’lim tizimi o‘quvchilar yoshi, ta’lim davomiyligi ahamiyat kasb etmaydigan, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish taqiqlangan, arab tilini, kitoblar mazmunini deyarli bilmaydigan mudarrislar dars beradigan, moliyasi mustamlakachilar sherikchilik qilayotgan vaqf daromadlari bilan

¹ Maftunaxon Umidjon qizi Tursunaliyeva, Namunaxon Bahodir qizi Turabova. (2023). Munavvar Qori Abdurashidxonovning pedagogikaga qo’shgan hissasi. “Science and Education” Scientific Journal. Volume 4 Issue 5, 1126-1130-betlar.

kifoyalanadigan, o‘qitishdagi ko‘pdan-ko‘p cheklovlar, murakkab talablar tufayli bor yaxshi kadrlar ham chet elga bosh olib ketayotgan, ta’lim tili arab tili etib belgilangan maktab-madrasalardan tashkil topgan edi.²

Maktablarda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitilishida ham Munavvarqori Abdurashidxonovning hissasi katta. U o‘zi ochgan maktablariga ushbu fanlarni kiritadi, ammo bu ishi uchun ko‘plab qarshiliklarga duch keladi. Bularga qaramasdan u o‘z ishini davom ettiradi va 3-4-sinflarda geografiya fanini o‘qitishga mo‘ljallangan “Yer yuzi” nomli darslikni ishlab chiqadi. Bu darslikda Quyosh, Oy, Yer kabi osmon jismlarining shakli, ularning harakati, qit’alar, globus, davlatlar, iqlim, demografiya haqida muhim va qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tilgan edi. Darslikdagi ma’lumotlar aniq, ixcham, tushunarli tarzda bayon qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Munavvarqori Abdurashidxonov harakatlari, mafkurasi o‘sha davrda ta’qilangan bo‘lsa-da, lekin u hamon o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Uning qilgan ishlari, qarashlari, g‘oyalari milliy pedagogik tizimimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shtgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Munavvarqori Abdurashidxonovning ma’rifiy-pedagogik qarashlari eng dolzarb bo‘lgan “Ilm-fan, maorif va madaniyat, ta’lim va tarbiya va yangi maktablar masalalarini birinchi o‘ringa qo‘yanlar” - yoki, “Ilg‘or musulmon ziyolilari mamlakat, taraqqiyot darajasi orqadaligini, ijtimoiy va mustamlaka zulmining asosiy sababini avvalambor xalqning ma’rifatsizligidan qidirdiki, shuning uchun muammolarning hal qilishning eng asosiy yo‘li deb maorif va ma’rifat ko‘zda tutildi. Shuning uchun ham avvalo aynan maorif sohasiga jadidchilar butun e’tiborini qaratgan edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Abdurashidxonov “Tanlangan asarlar” Nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmedov Toshkent: Ma’naviyat, 2003
2. Mahliyo Abdukarim qizi Kubayeva, Nigora Shuhrat qizi Muhammadqulova. (2023). Munavvarqori Abdurashidxonovning yangi milliy ta’lim tizimi tashkil etilishidagi xizmatlari va pedagogik qarashlari. “Science and Education” Scientific Journal. Volume 4 Issue 5, 1072-1078-betlar.
3. Mohichehra Xusanova. (2022). MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING PEDAGOGIK QARASHLARI. “SCIENTIFIC PROGRESS” journal. Volume 3 Issue 4. 780-784-betlar.
4. Maftunaxon Umidjon qizi Tursunaliyeva, Namunaxon Bahodir qizi Turabova. (2023). Munavvar Qori Abdurashidxonovning pedagogikaga qo‘shtgan hissasi. “Science and Education” Scientific Journal. Volume 4 Issue 5, 1126-1130-betlar.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Munavvarqori_Abdurashidxon_o%CA%BBg%CA%BBli

² Mahliyo Abdukarim qizi Kubayeva, Nigora Shuhrat qizi Muhammadqulova. (2023). Munavvarqori Abdurashidxonovning yangi milliy ta’lim tizimi tashkil etilishidagi xizmatlari va pedagogik qarashlari. “Science and Education” Scientific Journal. Volume 4 Issue 5, 1072-1078-betlar.